



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDAGI METAFORA VA O’XSHATISHLAR TARJIMASIDA SEMANTIK VA STILISTIK MUVOFIQLIK MASALASI

Fazildinova Sevara Nematovna

Farg’ona CAMU, Tillar kafedrası o’qituvchisi

sevarafazildinova6@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada metafora va o’xshatishlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar, asosiy tarjima strategiyalari hamda stilistik va semantik muvofiqlik masalalari tahlil qilinadi. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidan olingan misollar asosida badiiy tasviriy vositalarni tarjima tiliga o’girish, madaniy jihatdan moslikni ta’minlash va stilistik transformatsiyalar jarayoni yoritiladi.

Kalit so’zlar: tarjima, metafora, o’xshatish, badiiy tasviriy vositalar, tarjima strategiyasi, semantik tarjima, stilistik muvofiqlik.

Аннотация. В данной статье анализируются трудности, возникающие при переводе метафор и сравнений, основные переводческие стратегии, а также вопросы стилистического и семантического соответствия. На основе практических примеров из эпической поэмы «Фархад и Ширин» Алишера Навои рассматриваются особенности передачи образных выражений, культурной адаптации и стилистических трансформаций.

Ключевые слова: Перевод, метафора, сравнение, художественные изобразительные средства, переводческая стратегия, семантический перевод, стилистическое соответствие.

Abstract. This article analyses the challenges involved in translating metaphors and similes, the main translation strategies, and issues of stylistic and semantic equivalence. Drawing on practical examples from the epic poem “Farhod and Shirin” by Navoi, it explores the transfer of figurative expressions, cultural adaptation, and stylistic transformations.

Key words: translation, metaphor, simile, figurative language devices, translation strategies, semantic translation, stylistic equivalency.

Til inson tafakkurining eng muhim ifoda vositasi bo’lib, u orqali biz nafaqat axborot uzatamiz, balki dunyoni qanday idrok etishimizni, hissiyotlarimizni va munosabatlarimizni ham namoyon qilamiz. Tilning obrazli qatlamlari – xususan, metafora va o’xshatishlar – bu jarayonda alohida o’rin tutadi. Ular fikrni kuchaytirish, emotsional ta’sirni oshirish, estetik go’zallik yaratish va ko’p hollarda murakkab tushunchalarni sodda, ammo ta’sirchan shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Metafora – bu ikki tushuncha o’rtasidagi yashirin o’xshashlik asosida birini ikkinchisi orqali tasvirlash vositasi. Masalan, “*Hayot — bu sahna*” degan ibora hayotni teatr sahnasiga qiyoslaydi, bu orqali insonning ijtimoiy rollari, vaqtinchalikligi ifodalanadi. O’xshatishda esa bu qiyoslash ochiq ko’rsatkichlar vositasida ya’ni “xuddi”, “kabidir”, “go’yoki”, “bamisli”, “misoli” so’zlari hamda “-dek”, “-day”, “-dak” kabi formal ko’rsatkichlar orqali ifodalanadi [3:8] Masalan, “*U xuddi yo’lbarsdek jasur*”, “*Ko’zyoshlari daryo kabi oqardi*”. Har ikkala birlik ham tilning obrazli qatlamini shakllantiradi, lekin ularning tuzilishi, ifoda uslubi va stilistik yuklamasi farqlidir.

Tarjima jarayonida metafora va o’xshatishlar alohida murakkablik tug’diradi. Chunki bu birliklar faqat so’z darajasida emas, balki madaniy konnotatsiyalar, stilistik ohang va semantik qatlamlar orqali shakllanadi. Manba tilidagi metafora maqsad tilida mavjud bo’lmasligi, o’xshatishdagi obrazlar boshqa madaniyatda begona bo’lishi yoki tushunarsiz bo’lishi mumkin. Tarjimon bu holatda nafaqat til bilimiga, balki madaniy sezgirlik, stilistik mahorat va ijodiy yondashuvga tayanishi kerak bo’ladi.

Metafora va o’xshatishlarning tarjimasi nafaqat adabiy matnlarda, balki reklama, publitsistika, siyosiy nutqlar, hatto ilmiy matnlarda ham muhim ahamiyatga ega. Ularning

to'g'ri tarjima qilinishi matnning ta'sirchanligi, mazmuni va uslubiy yaxlitligini saqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, stilistik va semantik muvofiqlikni ta'minlash tarjimonning asosiy vazifalaridan biridir. **Semantik moslik** – ma'no darajasidagi muvofiqlik demakdir. Bu moslik turi metafora yoki o'xshatishning konseptual mazmuni, ya'ni nimani anglatishi, qanday idrok qilinishini saqlashga qaratilgan. Masalan, *“He's drowning in debt”* jumlasini tarjimada *“U qarz botqog'ida g'arq bo'lgan”* kabi tarjima qilinib semantik moslik hosil qilgan. Bu yerda *“drowning”* metaforasi *“qarzdin chiqolmaslik”* konseptini ifodalaydi – semantik mazmun saqlangan. Mutarjim tarjimada semantik muvofiqlikni ta'minlash uchun konseptual domenlarni aniqlash, maqsad tilida mavjud ekvivalent obrazlarni topish hamda ma'no buzilmasligi uchun ba'zan metaforani so'zma-so'z ifoda bilan almashtirish kabi amallarni bilishi muhimdir.

Stilistik moslik – ifoda uslubi va estetik ohang darajasidagi muvofiqlik. Bu moslik turi metafora yoki o'xshatishning **emotsional, poetik, ritmik** xususiyatlarini saqlashga qaratilgan. Masalan, *“Her voice was like a wisper of dawn”* jumlasining tarjimadagi stilistik jihatdan mos ko'rinishi *“Uning ovozi xuddi tong shabbodasidek mayin edi*. Bu yerda *“wisper of dawn”* o'xshatmasi nafaqat semantik, balki stilistik jihatdan ham mos tarjima qilingan — yumshoqlik, nafislik, poetiklik saqlangan. Tarjimon matndagi stilistik muvofiqlikni ta'minlash uchun esa tarjima tilidagi obrazli ifodalarni tanlashi, emotsional ohangni saqlashi (masalan, romantik, dramatik, satirik) hamda sintaktik struktura va ritmga (ayniqsa she'riy matnlarda) e'tibor berishi zarur [7:143]

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'p hollarda tarjimon semantik mazmunni saqlash bilan stilistik ohangni yo'qotish yoki aksincha, stilistik go'zallikni saqlab, semantik aniqlikdan chekinish muammosiga duch keladi. Bu tarjimonning qanchalik darajada manba metaforasini tushunishi, tarjima tili sohiblarining tomonidan qabul qilingan birliklarni bilishi hamda madaniy konnotatsiyalarni tahlil qilishi ko'nikmalariga ega bo'lishligiga bog'liq [8:98] Quyida biz Alisher Navoiyning *“Farhod va Shirin”* dostonidan olingan bir jumlaning ko'rib chiqamiz hamda uning tarjimadagi semantik va stilistik muvofiqligini tahlil qilamiz.

“Ahraman bu baxt yulduzini ko'rib momoqaldiraqday gurullab, qah-qah urib kulib yubordi” [1:74]. Ushbu jumla o'zida obrazli ifoda vositalarining murakkab va emotsional jihatdan kuchli uyg'unligini namoyon etadi. Sababi shuki, bu jumlada bir vaqtning o'zida **metafora** (*baxt yulduzi*) va **o'xshatish** (*momoqaldiraqday gurullab*) qo'llanilgan bo'lib, ular har xil stilistik va semantik funksiyalarni bajaradi.

“Baxt yulduzi” metaforasi orqali Farhodning saodatli taqdiri, ezgu niyatlari va muhabbat yo'lidagi muvaffaqiyati timsollanadi. Yulduz qadimiy adabiy an'anada ko'pincha ilohiy nur, yo'l ko'rsatuvchi belgi yoki taqdir ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu metafora Farhodga nisbatan ishlatilgan bo'lib, uning hayotida porlayotgan baxt va ezgulik Ahraman uchun tahdid sifatida ko'rinadi. Shu sababli Ahramanning reaksiyasi – *“momoqaldiraqday gurullab kulish”* – o'xshatish orqali kuchaytiriladi. Bu o'xshatish kulgining balandligi, g'azab aralash tahdidli ohangini ifodalaydi. *“Momoqaldiraqday”* komponenti kulguni nafaqat tovush jihatdan, balki semantik jihatdan ham kuchaytiradi. Tarjima nuqtai nazaridan, bu gapni ingliz tilida *“Seeing Farhod's star of fortune, Ahraman burst into thunderous laughter”* tarzida berish mumkin. Bu variantda *“star of fortune”* metaforasi saqlanadi, *“thunderous laughter”* esa o'xshatishni stilistik jihatdan kuchaytiradi. Umuman olganda, bu jumla tarjimasida obrazli ifodalarni saqlash, ularning emotsional va madaniy yukini yo'qotmaslik tarjimonning asosiy mahoratini talab qiladi. Metafora va o'xshatishning birgalikda ishlatilishi matnga ko'p qatlamli poetik kuch bag'ishlaydi, tarjimada esa bu qatlamlarni moslashtirish ijodiy yondashuvni talab etadi.

A'zam Abidov tomonidan taklif etilgan inglizcha tarjima *“Upon seeing that star of happiness near, Ahraman laughed as if to drain the world of life”* [2:94] Ushbu tarjima semantik jihatdan muvofiq bo'lsa-da, stilistik jihatdan muhim bir qatlamni yo'qotgan. Tarjimada *“baxt yulduzi”* metaforasi *“star of happiness”* shaklida saqlangan bo'lib, bu obrazning semantik

mazmuni yetarli darajada uzatilgan. Biroq “momoqaldiraqday gurullab” o‘xshatishining etalon obrazi — ya’ni kulgining momoqaldiroqqa o‘xshatilishi — tarjimada yo‘qolgan. Uning o‘rniga *“laughed as if to drain the world of life”* degan ifoda kiritilgan bo‘lib, bu kulgining natijasini (dunyoni hayotsizlantirish) tasvirlaydi, lekin kulgining **tovushli, baland, tahdidli** ohangini aks ettirmaydi. Natijada, tarjima **semantik maqsadni** saqlagan bo‘lsa-da, **stilistik kuch** va **emotsional ta’sirni** yo‘qotgan. Bu holat tarjimada obrazli ifodalarni to‘liq o‘tkazish zaruriyatini ko‘rsatadi: tarjimon nafaqat ma’noni, balki uslubni, ritmni va emotsiyani ham hisobga olishi kerak. Stilistik muvofiqlikni ta’minlash uchun bu satr *“...laughed like thunder”* yoki *“his laughter roared like thunder”* tarzida berilishi mumkin edi, bu holda o‘xshatishning asosiy obrazli etaloni saqlanardi. Shu misol tarjimada metafora va o‘xshatishning birgalikdagi ishlatilishini to‘liq aks ettirishning qanchalik muhimligini ko‘rsatadi.

Metafora va o‘xshatishlar tarjimasi tarjimonning lingvistik bilimidan tashqari, stilistik sezgirliги, madaniy tafakkuri va ijodiy yondashuvini talab qiladigan murakkab jarayondir. Ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan misollar va strategiyalar shuni ko‘rsatadiki, obrazli ifodalarni tarjima qilishda faqat so‘zma-so‘z yondashuv yetarli emas – tarjimon har bir obrazning semantik mazmunini, stilistik ohangini va madaniy konnotatsiyasini chuqur anglab, maqsad tilida ekvivalent ta’sirga ega ifodani topishi zarur.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, metafora ham o‘xshatish ham stilistik jihatdan kuchli ta’sirga ega birliklar bo‘lib, ularning tarjimasida o‘xshashlik darajasi va kontekstga moslik e’tiborga olinishi kerak. Tarjima strategiyalari – to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima, obrazni almashtirish, literal ifoda, izohli tarjima – kontekstga qarab tanlanadi va har birining afzallik jihatlari hamda cheklovlarini hisobga olish muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” nasriy bayon muallifi G‘ofur G‘ulom. T.: “Adabiyot va san’at”, 1975, –245 b.
2. Alisher Navoiy “Farhod and Shirin” translated by Azam Abidov, Tbilisi-Tashkent, 2018, P. 374
3. Mahmudov N., Hudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2013. –B.218
4. Newmark P. A Textbook of Translation. –London: Prentice Hall, 1988. –292 p.
5. Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: Brill, 1969. – 206 p.
6. Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. – Amsterdam: John Benjamins, 1995. – 328 p.
7. Sharifov S. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2010. – 240 b.
8. Xudoyberganov A. Til va tafakkur: stilistika va semantika. – Toshkent: Fan, 2005. – 216 b.